

PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING ODAM SAVDOSIGA QARSHI KURASHISH FAOLIYATI

*Omonov Hamid Bahriddin o'g'li
Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi
311-guruh kursanti*

Annatatsiya: Ushbu maqola orqali bugungi kunda global muammolardan biri bo'lgan odam savdosi jinoyati butun jahonni oldidagi eng kata xavfga aylanib bormoqda. Ushbu turdag'i jinoyatchilikka qarshi kurashish har birimizni asosiy vaziyfamiz sifatida belgilanmoqda.

Аннотация: Благодаря данной статье преступление торговли людьми, являющееся сегодня одной из глобальных проблем, становится самой большой угрозой, стоящей перед всем миром. Борьба с этим видом преступности определена как главная задача каждого из нас.

Annotation: Through this article, the crime of human trafficking, which is one of the global problems today, is becoming the biggest threat facing the whole world. The fight against this type of crime is defined as the main task of each of us.

*30 iyul — Butun jahon odam savdosiga
qarshi kurashish kuni*

Bugungni kunda butun yer yuzini qiynab keleyotgan bir qator global muammolar bor. Mana shunday muammolar sirasiga bevosita odam savdosi singari transmilliy jinoyatlarni ham kiritish mumkin. Yildan-yilga bu illatdan jabr chekayotganlar, uning qurboni bo'layotganlar soni ortib bormoqda. Hudud va chegara bilmaydigan bu jinoyatning har biri jamiyat taraqqiyoti va davlatlar rivojiga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Odam savdosidek og'ir jinoyat inson hayoti, erkinligi va huquqlarini poymol qilib, uning erki, taqdiri va kelajagini oyoq osti qilishi bilan naqadar jirkanch ko'rinishga ega.

Aytish lozimki, bugungi kunga kelib odam savdosining avj olishiga, ya'ni insonni qandaydir bir buyum sifatida, ta'bir joiz bo'lsa insonni oldi-sotdining ob'ekti sifatida foydalanilishi, ularning huquq va erkinliklarining poymol etilishiga quyidagilar sabab bo'lmoqda:

odam savdosi kabi noqonuniy faoliyat turi bir yoki bir necha a'zolardan iborat guruhlarning serdaromad manbasiga aylanib borayotgani, ya'ni ularning hech qanday og'ir va mashaqqatli mehnatlarsiz mo'may daromad olishga urinayotganligi;

odam savdosining qurbaniga aylanayotgan shaxslarning soddaligi, o'zining, yaqinlarining taqdiriga va kelajagiga befarqligi, loqaydligida. Ya'ni eng oliy ne'mat hisoblanmish erkin hayot tushunchasiga nisbatan engil va beparvolik bilan qarashlari oqibatida ushbu odam savdosini amalga oshiruvchi jinoyatchilarining o'ljasiga, aniqrog'i ularning oson daromad manbaiga aylanib qolmoqdalar;

odam savdosini amalga oshiruvchi jinoyatchi shaxslar o'zlarining tanishlari, yaqin qarindoshlariga nisbatan, ya'ni ularning ishonchiga kirib olib, ularning odam savdosini qurbaniga aylanib qolishiga sababchi bo'layotganligida;

odam savdosining qurbaniga aylanayotgan shaxslarning or-nomus qilib, ko'rgan xo'rliklari, ularga nisbatan ishlatilgan turli xildagi jismoniy yoki ruhiy tazyiqlar haqida yohud o'zining noqonuniy ravishda chegarani buzib chiqib, chet davlatda hech qanday davlat ro'yxatidan o'tmasdan, noqonuniy mehnat faoliyatini amalga oshirganligidan qo'rqib bular haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat etmasligi.

Ushbu illatga qarshi kurashish maqsadida 2013 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan **30 iyul – Butunjahon odam savdosiga qarshi kurashish kuni** deb e'lon qilingan. Ayni paytda transmilliy uyushgan jinoyatchilikning uzviy tarkibiy qismi bo'lgan bu turdagи jinoyat dunyo miqyosida keng tarqalmoqda. BMT va Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot mutaxassislarining tahliliy xulosalariga ko'ra, undan jabr ko'rganlar soni bir necha millionlarini tashkil etadi. Tashvishlanarlisi, odam savdosi jinoyatidan jabrlanganlarning asosiy qismini ayollar va bolalar tashkil qilmoqda.

Odam savdosi faqatgina O'zbekiston Respublikasining muammosi sifatida qarashimiz noto'g'ri bo'ladi, chunki hozirgi kunda odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlar ko'plab mamlakatlarda keng tarqalib butun dunyo hamjamiyatini xavotirga solmoqda. eng achinarlisi, odam savdosi bog'liq jinoyatchilikning keng quloch yozishiga: aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari - ishsiz yurgan fuqarolar, turmush hayotida ko'p qiyinchilikka uchragan ayollar va ota – onasining e'tibori va qaramog'idan chetda qolgan voyaga etmagan shaxslarning go'yoki ularning muammolarini hal qilgan kabi ko'rinish, o'zlarining g'arazli maqsadlarida foydalanayotganligidadir.

Bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lgan odam savdosining oldini olish va unga qarshi kurashish borasida O'zbekiston Respublikasida ham qator choratadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Shu bilan birga, odam savdosi transmilliy, ya'ni hudud va chegara tanlamaydigan jinoyat ekanligi hisobga olinib, davlatimiz 2003 yil 12 dekabrda BMT Bosh Assambleyasining 1950 yilda qabul qilingan "Odam savdosi va fokishalikning uchinchi shaxslar tomonidan ishlatilishiga qarshi kurash to'g'risida"gi Konventsiyaga qo'shildi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2000 yil 15 noyabrdagi rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi

kurash to'g'risida"gi Konvensiya, shuningdek, odam savdosi, ayniqsa, ayollar va bolalarni sotishning oldini olish, unga chek qo'yish va buning uchun jazolash to'g'risidagi qo'shimcha protokol ham ratifikatsiya qilindi. Shuningdek, mustaqillik yillarida xorijiy davlatlar bilan uyushgan jinoyatchilik, shu jumladan, odam savdosining xavfli ko'rinishlariga qarshi kurash haqida bir qator shartnoma va kelishuvlar imzolandi.

O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 17 aprelda qabul qilingan "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan bo'lib, ushbu qonun yanada takomillashtirish va hozirgi zamon talablariga moslashtirish maqsadida unga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilib, uning yangi tahriri 2020 yil 17 avgustda qabul qilindi. Qonunni yangi tahrirda ishlab chiqish zarurati bugungi kunda odam savdosidan jabrlanganlarni himoya qilish va ularga yordam berish masalalariga doir aniq qoidalar tartibga solinmaganligi hamda voyaga etmaganlarning savdosiga qarshi kurashishni o'ziga xos xususiyatlari, shu jumladan, identifikasiya qilish, yordam berish va himoya qilishning huquqiy maqomi aniq belgilash bilan izohlanadi. Yangi tahrirdagi Qonunda ana shu jihatlar e'tiborga olingan. Jumladan, sohaga oid asosiy tushunchalar va tamoyillar, uni davlat tomonidan tartibga solishga oid normalar, vakolatli davlat organlari, Milliy komissiya, hududiy komissiyalar va Milliy ma'ruzachiga oid me'yorlar aniq belgilangan. Bundan tashqari mamlakatimizda odam savdosiga qarshi kurashish sohasida sud amaliyotini yanda takomillashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi tomonidan 2009 yil 24-noyabrda "Odam savdosiga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 12-sonli plenum qarori qabul qilindi. Ushbu plenum qarori asosida odam savdosiga oid ishlarni tergov qilish yoki ko'rib chiqishda tergov organlari hamda sudlar tomonida bir qancha tushuncha va atamalarni aniq farqlash kerakligi belgilanib o'tildi.

yollash deganda, ekspluatatsiya qilish maqsadida odamni biror-bir faoliyat bilan shug'ullanishga jalb etishga qaratilgan faoliyat (ekspluatatsiya obyektini qidirish, toplash, u bilan muzokara yuritish va h.k) tushuniladi;

tashish — shaxsni olish-sotish bitimi tuziladigan (ijro etiladigan), boshqa shaxsga topshiriladigan joyga yoki undan ekspluatatsiya maqsadida foydalilaniladigan joyga yetkazib berish (transportda tashish)ni anglatadi. Bunda yetkazib beriladigan shaxs odam savdosini amalga oshirish uchun mo'ljallanganligi tashuvchiga oldindan ma'lum bo'lishi lozim. Tashish bitta aholi punkti doirasida ham, O'zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqish bilan bog'liq tarzda ham amalga oshirilishi mumkin;

topshirish — odamni boshqa shaxsga ekspluatatsiya qilish maqsadida jismoniy tarzda berishda ifodalanadi;

yashirish — jabrlanuvchini hokimiyat vakillaridan, qarindoshlaridan yoki uning taqdiridan manfaatdor boshqa shaxslardan har qanday joyda xufiya saqlashda ifodalanadi;

qabul qilish — odamni o‘z maqsadlarida ekspluatatsiya qilish uchun egalikka olish (masalan, hadya tariqasida, vaqtincha tekin foydalanish uchun yoki qarz evaziga va h.k.) ni anglatadi, odamni sotib olish hollari bundan mustasno.

Bundan tashqati bevosita O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodekisi 135-moddasida ham ushbu turdagি qilmisni sodir etish oqiba tida jinoiy holat yuzaga kelishi belgilanib o‘tildi. Unga ko’ra:

Odam savdosi, ya’ni odamni olish-sotish yoxud odamni undan foydalanish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish —

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha harakatlar:

a) o‘g‘irlash, zo‘rlik ishlatish yoki zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqtish yoxud majburlashning boshqa shakllarini qo‘llash orqali;

b) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan;

v) ojiz ahvoldaligi aybdorga ayon bo‘lgan shaxsga nisbatan;

g) aybdorga moddiy jihatdan yoki boshqa jihatdan qaram bo‘lgan shaxsga nisbatan;

d) takroran yoki xavfli retsidiivist tomonidan;

e) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

j) xizmat mavqeyidan foydalangan holda;

z) jabrlanuvchini O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasidan olib o‘tgan holda yoki uni chet elda qonunga xilof ravishda ushlab turgan holda;

i) qalbaki hujjatlardan foydalangan holda, xuddi shuningdek jabrlanuvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni olib qo‘yan, yashirgan yoxud yo‘q qilib yuborgan holda;

k) inson a’zolarini va (yoki) to‘qimalarini olish maqsadida sodir etilgan bo‘lsa;

besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha harakatlar:

a) o‘n sakkiz yoshga to‘limganligi aybdorga ayon bo‘lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan bo‘lsa;

b) jabrlanuvchining o‘limiga yoki boshqa og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lsa;

v) o‘ta xavfli retsidiivist tomonidan sodir etilgan bo‘lsa;

g) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa, —sakkiz yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanish belgilanib o‘tilgan.

Xulosa o‘rnida shuni alohida qayd etib o‘tish kerakki, “odam savdosiga qarshi kurash aholining turli qatlamlari, ayniqsa, ayollar va voyaga yetmagan shaxslarga odam savdosi kabi illatning farovon turmush-hayotimizga soladigan xavfi va salbiy oqibatlari to‘g‘risida tushuntirish ishlarini olib borish, ya’ni, aholining gavjum

joylarida, mahallalarda, turli xil ta'lif muassasalarida, davlat idoralari, korxona, muassasa, tashkilotlarda targ'ibot va tashviqot ishlarni olib borish, keng tushuntirish ishlarni amalga oshirish, ularda huquqiy ong va huquqiy madaniyatini oshirish asosiy vazifalardan biridir. Ushbu ishlarni amalga oshirish orqali bugungi kunda odam savdosi qurbaniga ayalnib qolayotgan insonlarni ushbi illat domiga tushib qolishidan oldini olamiz va ularnmi hayotiga raha solgan xavfni yo'q qilgan bo'lamiz.

Adabiyotlar:

- 1.Yangi tahrirdagi O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi; . T_2023
- 2.“Ichki Ishlar Organlari to'g'risidagi qonuni” 2016-yil 16-sentabr O'RQ 407-son qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodekisi.
4. “Huquqburzaliklar profilaktikasi to'g'risida”gi 2014-yil 14-maydag'i O'RQ 371-sonli qonuni.
5. “Odam savdosiga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 24.11.2009 yildagi 12-son.
6. “Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida”gi O'zbekiston respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 17.08.2020 yildagi O'RQ-633-son.
7. www.lex.uz Elektron huquqiy hujjatlar to'plami.
8. [“INTERNATIONAL SCIENTIFIC ONLINE CONFERENCES”](#) elektron jurnali..